PEDAGOGIKA

ILMIY-NAZARIY VA METODIK JURNAL

3/2026

Bosh muharrir:
Umarova Xilola Uktamovna

Maxmudov Abduxalim Xamidovich
(bosh muharrir o‘rinbosari)

Tahrir hay’ati:
Djurayev Risbay
Ibraimov Xolboy
Abdullayeva Barno
Abdullayeva Shaxzoda
Aliev Seyxun
Djurayev Dusmurod
Jabbarov Zarifboy
Ibragimova Gulnora
Kadirova Fatima
Kamilova Nodira
Karimova Nozima
Madjidova Dildora
Medetova Raushan
Muslimov Narzulla
Safarova Roxat
Tojiboyeva Xilolaxon
Xakimova Muxabbat
Xodjayev Begzod

Muassis – Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti. Jurnalda pedagogika, psixologiya, o‘qitishning metod va texnologiyalariga oid ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik maqolalar o‘zbek va rus tillarida chop etiladi.

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2014-yil 26-maydagi 02-004-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan va unga O‘zbekiston Respublikasi Milliy kitob palatasining 2008-yil 30-iyundagi 511/S shartnomasi asosida Davriy nashrlarning Xalqaro standartlar (ISSN) – 2010-5320 raqami taqdim etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya Komissiyasi rayosatining 2013-yil 30-dekabrdagi 201/3-sonli qarori bilan ro‘yxatga olingan.

© “Pedagogika” jurnali, 2026

PEDAGOGIKA

SCIENTIFIC-THEORETICAL AND METHODICAL JOURNAL

3/2026

CHIEF EDITOR
Umarova Xilola Uktamovna

Maxmudov Abduxalim Xamidovich
(deputy editor-in-chief)

EDITORIAL BOARD:
Djurayev Risbay
Ibraimov Xolboy
Abdullayeva Barno
Abdullayeva Shaxzoda
Aliev Seyxun
Djurayev Dusmurod
Jabbarov Zarifboy
Ibragimova Gulnora
Kadirova Fatima
Kamilova Nodira
Karimova Nozima
Madjidova Dildora
Medetova Raushan
Muslimov Narzulla
Safarova Roxat
Tojiboyeva Xilolaxon
Xakimova Muxabbat
Xodjayev Begzod

The founder: National Pedagogical University of Uzbekistan named after Nizami.

The journal publishes scientific theoretical and methodological articles in Uzbek and Russian English languages in the fields of pedagogics, psychology, teaching methods and technologies. The journal has been certified under № 02-004 on the state registration of the mass media from the Tashkent Press and Information Administration as of May 26, 2014 and was awarded the international standard number (ISSN) - 2010-5320 of periodical journals on the basis of the 511/S contract from the National Book Chamber of the Republic of Uzbekistan. The journal has been registered by the Presidium of the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under № 201/3 as of December 30, 2013.

PEDAGOGIK FAOLIYATDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Bayjonov Furqat Baxramovich, *Oriental universiteti Uzluksiz ta’lim pedagogikasi kafedrasi dotsenti. p.f.f.d., PhD*

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy va shaxsiy sifatlarini shakllantirishda bilim, malaka, tajriba va qobiliyat uyg‘unligi muhimligi yoritilgan. Ushbu uyg‘unlik «kompetentlik» tushunchasi orqali izohlanib, u o‘qituvchining kasbiy muvaffaqiyatini ta’minlovchi asosiy omil sifatida talqin etiladi. Kasbiy kompetentlikning muhim tarkibiy qismi sifatida kommunikativ kompetentlik alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagogik faoliyatning mohiyati ta’lim oluvchilar bilan samarali muloqotni tashkil etishga bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi. Shu bois kommunikativ kompetentlik o‘qituvchi kasbiy mahoratining negizi sifatida baholanadi. Shuningdek, kommunikativ kompetentlik yetarli darajada shakllanmagan taqdirda zamonaviy ta’lim texnologiyalarini samarali qo‘llash qiyinlashishi asoslab berilgan.

Tayanch so‘zlar: *kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kommunikativ kompetentlik, kommunikativ texnologiyalar, pedagogik faoliyat, ta’lim sifati, o‘zaro ta‘sir.*

Аннотация. В данной статье освещена важность гармоничного сочетания знаний, умений, опыта и способностей в формировании профессиональных и личностных качеств будущего учителя. Данная гармония объясняется через понятие «компетентность», которое рассматривается как основной фактор, обеспечивающий профессиональный успех педагога. В качестве важной составляющей профессиональной компетентности выделена коммуникативная компетентность. Подчеркивается, что сущность педагогической деятельности связана с организацией эффективного взаимодействия с обучающимися. В связи с этим коммуникативная компетентность рассмотрена как основа профессионального мастерства учителя. Кроме того, обосновано, что недостаточный уровень сформированности коммуникативной компетентности затрудняет эффективное применение современных образовательных технологий.

Ключевые слова: *компетентность, профессиональная компетентность, коммуникативная компетентность, коммуникативные технологии, педагогическая деятельность, качество образования, взаимодействие.*

Abstract. This article highlights the importance of integrating knowledge, skills, experience, and abilities in the formation of professional and personal qualities of a future teacher. This integration is explained through the concept of «competence», which is interpreted as a key factor ensuring the professional success of a teacher. Communicative competence is identified as an essential component of professional competence. It is emphasized that the essence of pedagogical activity lies in organizing effective interaction with learners. Therefore, communicative competence is considered the foundation of a teacher‘s professional mastery. The article also substantiates that an insufficient level of communicative competence hinders the effective implementation of modern educational technologies.

Key words: *competence, professional competence, communicative competence, communicative technologies, pedagogical activity, quality of education, interaction.*

Kirish. Ta‘lim sohasida olib borilayotgan hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan davlat siyosati ijtimoiy jamiyat taraqqiyotini ta‘minlovchi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e‘tirof etildi. Bu yo‘nalishda amalga oshiriladigan muhim tadbirlar qatorida mutaxassislarning yangi avlodini shakllantirish, ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk, mustaqil dunyoqarashga ega, ijodiy fikrlovchi, boy milliy meros, shuningdek, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatli barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish vazifalari belgilab qo‘yildi.

Asosiy qism. Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va erishilgan qator ijobiy o‘zgarishlarga qaramasdan, ta’lim samaradorligining rivojlanish dinamikasini yanada jadallashtirish, bunda yaratilgan shart-sharoitlar va imkoniyatlardan samarali

foydalanishjuda muhimdir. Jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlar talablariga to‘la javob beruvchi, ishlab chiqarish sohasida yuzaga kelgan raqobatga bardoshli, keskin o‘zgarishlarga tezkor moslasha oluvchi, shuningdek, mehnat bozorida mutaxassislar malakasiga qo‘yilayotgan talablar darajasida samarali faoliyat yurituvchi shaxsni shakllantirish bugungi kunda eng dolzarb masala hisoblanadi. Insonning hayot tarzida eng muhim tarkibiy vosita bo‘lgan muloqot, har qanday kasbiy faoliyatning barcha turlarida mavjud. Biroq o‘qituvchi uchun u kasbiy faoliyatga shunchaki hamroh bo‘lgan oddiy omil emas, balki kasbiy ahamiyat kasb etadigan, uning asosini tashkil etadigan muhim kategoriya sanaladi. Bu holda muloqot insonlar o‘rtasidagi odatiy o‘zaro hamkorlik shakli emas, balki kasbiy faoliyatning muvaffaqiyatini ta’minlovchi kategoriya sifatida mavjuddir. Ayniqsa, pedagogik faoliyatda muloqot muhim funktsional, o‘qituvchi uchun kasbiy jihatdan ahamiyatli vosita sanalib, o‘zaro ta‘lim va tarbiyaviy ta’sir quroli sifatida namoyon bo‘ladiki, bunda muloqotning muhim shartlariga va qonuniyatlariga, qo‘shimcha vazifalariga rioya qilishga to‘g‘ri keladi.

Kasbiy-pedagogik muloqot deganda, o‘qituvchi va ta’lim-tarbiya jarayoni obyektlarining o‘zaro hamkorlik tizimi tushuniladi, uning asosiy faoliyat mazmuni o‘zaro axborot almashish, shaxsni bilish, tarbiyaviy ta’sir o‘tkazish sanaladi. Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy va shaxsiy sifatlarini tarkib toptirishda shaxsning xislati, tajribasi, bilim malakasi hamda qobiliyatini uyg‘unlashtirish zarurati tug‘iladi. Bu uyg‘unlikni «kompetentlik» deb atash mumkin bo‘lib, bu atama orqali bo‘lajak o‘qituvchining kasb sohasida ulkan muvaffaqiyatlarga erishish salohiyati tushuniladi. Darhaqiqat, kasbiy kompetentlik, uning tarkibiga kiruvchi kommunikativ kompetentlik bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatida samaradorlikka erishishda muhim omil hisoblanadi [14]. Xorij va yurtimiz olimlarining kompetentlik, kasbiy kompetentlik haqidagi izlanishlarini o‘rganish jarayonida olimlarning mazkur masalaga turlicha ta’rif berishlari, fikr-mulohaza va xulosalarida har xil yondashuvlar borligini ko‘rdik. Lekin, barcha olimlar o‘z tasniflarida kommunikativ kompetentlikni asosiy kompetent sifatida alohida e’tirof etishgan. Xususan, N.A.Muslimov o‘zining tadqiqot ishlarida o‘qituvchining kasbiy kompetentligini shakllanganlik asosini oltita sifatlar, ya’ni motivatsion sifatlar, intellektual salohiyat, irodaviy sifatlar, amaliy ko‘nikmalar, hissiy sifatlar, o‘z-o‘zini boshqara olish sifatlari bilan bog‘laydi va amaliy ko‘nikmalar deganda shaxsning faoliyat va muloqotning turli sohalardagi ko‘nikmalari deb ta’kidlab o‘tadi [12].

Pedagogik kompetentlik – yuksak darajadagi pedagogik faoliyatning taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egallashni, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi va kasbiy faoliyatidagi individuallikning yorqin ko‘rinishi sifatida tushuniladi.

Kompetentsiya – muayyan muammo va masala, hodisa borasida shaxsning bilim, tajriba, mutasaddilikka ega bo‘lishi va ularni hal qilishga etadigan salohiyati tushuniladi[1].

Kompetentlik – voqea-hodisalar, masalalar echimi to‘g‘risida xabardor bo‘lish, muayyan nufuzga ega bo‘lishni o‘zida ifoda etadi [2]. Kasbiy kompetentlik, o‘z navbatida, bevosita kommunikativ kompetentlik bilan chambarchas bog‘liqdir. Pedagogik faoliyatning mohiyati ta’lim oluvchilar bilan o‘zaro aloqani tashkil qilar ekan, kommunikativ kompetentlikni o‘qituvchi kasbiy mahoratining negizi deyish mumkin.

Turli manbalarda kommunikativ kompetentlik turlicha talqin qilinadi: o‘zgalarning fikrlarini eshitish va e’tiborga olish, o‘z nuqtai nazarini himoya qilish va bahslasha olish, qarorlar qabul qilish, aloqa o‘rnatish, turli-tuman fikrlar va ziddiyatlarni yenga olish, muzokaralar olib borish, jamoada ishlash va hamkorlik qilish qobiliyati [8]; og‘zaki va yozma muloqot kompetentsiyalari, dialog, monolog, matn mazmunini anglash; an’analar, marosimlar, etiketni bilish va amal qilish; rasmiy yozishmalar; ish yuritish, biznes tili;

chet tilida muloqot, kommunikativ topshiriqlar, tinglovchiga ta'sir darajalari; kommunikativ muloqotga kirisha olish, tinglovchiga tushunarli bo'lish, erkin muomala qilish, yoqimsiz holatlardan xoli bo'lgan muloqot orqali kerakli natijalarga erishish qobiliyati [13].

Tadqiqotchilarning bu yondashuvlariga ko'ra kommunikativ kompetentlikning mohiyatini kommunikativ vazifalarni (ma'lumotlarni uzatish, muzokaralar olib borish, aloqalar o'rnatish va uni saqlashni) hal qilish uchun turli xildagi aloqalarga (verbal, noverbal, og'zaki, yozma) kirishishga tayyorligi va qodirligi deb tasavvur qilish mumkin. Agar bo'lajak o'qituvchi kommunikativ kompetentlikka yetarli darajada ega bo'lmasa, ta'lim-tarbiya jarayonida o'zaro ta'sir jarayonini uddaburonlik bilan boshqarishga, kommunikativ texnologiyalarni qo'llashga tayyor bo'lmasa, shaxsga yo'naltirilgan zamonaviy ta'lim texnologiyalarini amalga oshirish mumkin emas. Demak, kommunikativ, ya'ni nutqiy kompetentlik bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligini ko'rsatuvchi muhim omildir. Chunki, hozirgi kunda yaxshi mutaxassis bo'lishning o'zi yetarli emas. Bugungi umumiy natija uchun jamoa bo'lib ishlay olish, qarorlar qabul qilishda qatnashish, o'z fikrini boshqalarga tushunarli qilib ayta olish, ma'lumotlarni e'tirozsiz qabul qilish, ziddiyatlarni yo'qotishga moyillik, hissiyotlarni nazorat etish, salbiy hislarning yo'qligi, ustunlikka intilmaslik, ishdagi hamkasblar, talabalar nuqtai nazarini tushunish kabi xislatlarga ega bo'lgan yaxshi hamkasb bo'lish kerak. Shuningdek, turli axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ma'lumotlar bilan ishlay olish; ziddiyatlarni samarali yechimini topish; mazmunli tanqidni hisobga olgan holda o'z mehnati natijalarini ko'rsata olish; hamkasblar, talabalar, ularning ota-onalari bilan o'zaro iliq munosabat o'rnata olishi lozim. Agar ta'limning asosiy mazmunini har bir kishining shaxsiy, kasbiy, ijtimoiy hayotida muvaqqaqiyat qozonish uchun zarur bolgan amaliy konikmalar, malakalar deb belgilaydigan bo'lsak, shulardan kommunikativ kompetentlik eng muhimi hisoblanadi. Individual-shaxsiy xususiyatlar, ijtimoiy-madaniy va tarixiy tajriba muloqotda kompetentlikning shakllanishiga ko'maklashadi.

Tilshunos olim N.Maxmudovning ta'kidlashicha, nutqning to'g'riligi nutq madaniyati haqidagi ta'limotning markaziy masalasi bo'lib, adabiy til me'yorlariga amal qilib tuzilgan nutq to'g'rilik sifatini oladi [7]. Nutqning madaniyligini ta'min etadigan to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, boylik, soflik, jo'yalilik kabi bir qator kommunikativ sifatlar mavjud. Ana shu kommunikativ sifatlarning barchasini o'zida mujassamlashtirgan nutq madaniy hisoblanadi. Har qanday nutqning asosiy maqsadi muayyan axborotni tinglovchiga yetkazish, shu yo'l bilan unga ta'sir qilishdan iborat bo'lib, mazkur sifatlarning jami nutqning ta'sirchanligini yuzaga keltiradi. Kishilar o'rtasidagi muloqotni talab darajasida ta'minlaydigan nutq to'g'ri bo'lishi bilan birga aniqlik sifatiga ham ega bo'lishi shart. Yana shuni ta'kidlash joizki, agar aytilmoqchi bo'lgan fikrning o'zi aniq va ravshan bo'lmasa, uni ifodalash uchun tuziladigan nutq hech qachon aniq bololmaydi. Demak, nutqning aniqligi so'zning tildagi ma'nosiga to'liq muvofiq holda qo'llanadigan kommunikativ sifatdir. Nutqning mantiqiyligi ta'lim oluvchi tomonidan to'g'ri va to'liq anglanishi uchun zaruriy bo'lgan sifatlardan biridir. Mantiqsiz nutq kishilar o'rtasidagi aloqani ta'minlay olmaydi. Fikr rivojining izchilligi, fikrlar va tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarning mantiqiyligi nutqning mantiqiyligini yuzaga keltiradi. Nutqning boyligi deganda, tilning bir-biridan farq qiladigan unsurlari – so'zlar, ma'nolar, iboralar, ohang va hokazolardan qay darajada foydalanilganlik bilan belgilanadi. Boy nutq tuzish uchun ifodalarning bir xilligidan qochish, ayni bir tushuncha yoki fikrga turli xil unsurlarni ishlatish lozim. Zero, o'zbek tili har jihatdan, xususan, lug'at xazinasi nuqtai nazaridan benihoya boy tildir.

Nutqning jo'yaliligi ifodalanmoqchi bo'lgan axborotning mavzusi, uning mantiqiy va hissiy mazmuni, tinglovchining yosh, ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy va boshqa xususiyatlari,

yozma va og‘zaki nutqning xabar berish, tarbiyaviy, estetik vazifalariga to‘la mos kelishi bilan belgilanadi (masalan, jahl chiqqanda, xursand bo‘lganda, qayg‘u-musibatda, baxtli va baxtsizlikda aynan bir xil so‘z ishlatilmasligi).

Nutqning ifodaliligi talaba diqqatini o‘ziga jalb qila olishdan iborat bo‘lgan kommunikativ sifatdir. O‘qituvchi dars mavzusini tushuntirar ekan, o‘z nutqining ifodaliligiga e’tibor bermasa, ifodalilikni ta’minlaydigan vositalardan foydalanmasa, nutqi quruq, shirasiz, jozibasiz bo‘ladi va natijada bunday nutq talaba diqqatini torta olmaydi. Mukammal shakllangan, talab darajasidagi nutqiy madaniyat muloqot kompetentligining muhim o‘zagi hisoblanadi. Yoqimli ma’naviy-psixologik iqlim, muloqotda insonparvarlik va demokratiya, aloqalar o‘rnatish va muammolarni hal qilish maqsadidagi muloqotning samaradorligi, o‘qituvchi va ta’lim oluvchining o‘z mehnatidan qoniqishi o‘qituvchining kommunikativ kompetentligiga bog‘liq. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini ta’lim jarayoni qatnashchilarining rivojlanishi va o‘z-o‘zini namoyon qilishi, shuningdek, ta’lim sifatini oshirish usullaridan biri deb qarash mumkin.

Kommunikativ kompetentlik – murakkab kommunikativ ko‘nikma va malakalarni egallash, muloqotda madaniy me’yorni bilish, muomalada urf-odat va an’analarga rioya qilish; tarbiyalanganlik, milliy mentalitetga va ma’lum kasbga oid kommunikativ vositalarni bilish demakdir. Shuningdek, kommunikativ kompetentlik shaxsning umumlashgan kommunikativ xususiyati bo‘lib, kommunikativ qobiliyatlar, bilim, ko‘nikma va malakalarni hamda rasmiy muloqot sohasida ijtimoiy tajribani o‘z ichiga oladi. Kasbiy faoliyatda umumiy madaniyat va uning o‘ziga xos ko‘rinishlarini o‘zida mujassamlashtirgan integral xususiyat ham kommunikativ kompetentlik hisoblanadi [10].

Kommunikativ kompetentlik shartlaridan biri ma’lum qoida va talablarning bajarilishidir. Bu qoidalarning eng muhimi quyidagilardan iborat:

Agar so‘zlovchining fikri noaniq, o‘ziga ham tushunarsiz bo‘lsa, uni bayon etmaslik qoidasi «umumiy qoida» hisoblanadi.

«Tushunishga doimiy tayyorgarlik» qoidasi. Semantik va shaxsiy to‘siqlar fikrni to‘liq va aniq tushunishga xalaqit berishi mumkinligini bilish lozim.

«Aniqlik» qoidasi. Noaniq, galiz, noo‘rin so‘zlar va so‘z birikmalarini ishlatmaslik, notanish va tor sohaga oid atamalardan zaruratsiz foydalanmaslik kerak.

«Noverbal signallarni nazorat qilish» qoidasi. Nutq va fikr mazmunini nazorat qilish bilan chegaralanib qolmay, uning doimiy «hamrohlari» mimika, jestikulyatsiya (xatti-harakat, imo-ishora), ohang, tana harakatiga ham e’tibor berish kerak.

«Shaxsiy nohaqlik» qoidasi. Muloqotda shaxsiy nuqtai nazar hamma vaqt ham to‘g‘ri bo‘lavermasligini tushunish orqali jiddiy xatolarning oldini olishi mumkin ekanligini anglash zarur.

«Makon va zamon» qoidasi. O‘z vaqtida va o‘rnida aytilgan har bir nutq yoki muloqot samarali bo‘ladi.

«Ochiqlik» qoidasi. O‘z nazarini yangi paydo bo‘lgan holatlar ta’sirida qayta ko‘rib chiqishga tayyorlik hamda hamsuhbatning fikr-mulohazalarini hisobga olish qobiliyati nazarda tutiladi.

«Diqqat bilan va konstruktiv eshitish» qoidasi. Samarali muloqotning asosiy shartlaridan biri.

«Aks aloqa» qoidasi. Aynan shu qoida ohir-oqibat muloqot jarayonining asosiy maqsadi – xushmuomalalikka erishishga olib keladi.

«Kommunikativ kompetentsiya» tushunchasi kelib chiqishiga ko‘ra muloqot jarayoni

bilan bog‘liq bo‘lgan insonga qo‘yilgan talablar tizimini anglatadi. Bunga ravon, chiroyli nutq, notiqlik usullaridan xabardorlik, hamsuhbatga individual yondasha olish malakasi kabilar kiradi. Agar biror kishining qobiliyati haqida gap ketsa, u kommunikativ kompetentlikka ega deb aytiladi. Demak, yuqorida ta’kidlaganimizdek, kommunikativ kompetentsiya muloqotga oid talablar tizimiga mos kelishi demakdir [4].

Kommunikativ kompetentsiyaning tarkibiy qismlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: u yoki bu leksikaga ega bo‘lish; og‘zaki nutqning rivojlanganligi; muloqot odobiga rioya qilish; kommunikativ taktikalarga ega bo‘lish; kommunikativ strategiyalarga ega bo‘lish; muloqotga kirishgan shaxslarning shaxsiy xususiyatlari va tipik muammolarini bilish; tashqi signallar (tana harakatlari, mimika, ohang)ni tahlil qila olish; ziddiyatga moyillikning yo‘qligi, ziddiyatni boshlanishidayoq bartaraf eta olish qobiliyati; o‘ziga ishonchli bo‘lish (assertivlik); diqqat bilan eshita olishni bilish; notiqlik mahoratiga ega bo‘lish; aktyorlik qobiliyati; muzokaralar, rasmiy uchrashuvlar tashkil qilish va olib borishni bilish; empatiya; boshqalarning qiziqishlarini tushuna olish; bahsda qat’iyatlikni ko‘rsata olish: muloqot jarayonida o‘z nuqtai nazarini qat’iy va izchillik bilan tushuntirish; o‘z fikrini asoslay olish: muloqot jarayonida shaxsiy fikrni asoslash uchun kerakli dalillarni vaqtida keltira olish. Demak, kommunikativ kompetentlik shaxslararo zarur aloqalarni o‘rnatish va bir maromda saqlash qobiliyatidir. Samarali muloqot uchun suhbatdoshlarning o‘zaro tushunishiga erishish xarakteri hisoblanadi va muammolarning hal bo‘lishiga ko‘maklashadi, maqsadlarga erishishini ta‘minlaydi.

Zotan, «ta’limga kompetentsiyaviy yondashuv, bu – ta’limni bozor ehtiyojlariga muvofiq holga keltirishga harakat natijasi bo‘lib, ta’lim natijasi sifatida o‘quvchilarning o‘zlashtirgan axborotlari yig‘indisi emas, balki ularning turli vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyati e‘tiborga olinadi. Kommunikativ kompetentsiyaviy yondashuv bilimlar zahirasi bilan birga, muammoli vaziyatlarda bu bilimlardan o‘rinli va maqsadga muvofiq ravishda faydalana olish qobiliyatiga ega shaxs sifatida tarbiyalashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi» [9].

Bo‘lajak o‘qituvchining kommunikativ kompetentligiga maqsadga yo‘nalgan jarayon, kasbiy malakalar va shaxsiy sifatlarning rivojlanish natijalari sifatida qaratiladi. O‘qituvchi eshita olishi va tushunishi, tushuntirishi va isbotlashi, savol berishi va javob berishi, ishontirishi va ta’lim oluvchi fikrini o‘zgartira olishi, suhbat chog‘ida ishonch va rasmiy xayrihohlik ruhini yarata olishi, ta’lim oluvchiga individual psixologik yondashuv topishi, ziddiyatlarni hal qila olishi lozim. Bunday faoliyat negizida muloqotning kommunikativ texnikasi mavjud bo‘lib, u o‘qituvchining kasbiy mahoratini ko‘rsatuvchi muhim belgidir.

Xulosa. Kompetentlik tarkibiga samarali muloqotni ta’minlovchi bilim, malaka, ko‘nikmalar yig‘indisi kiradi va bunday kompetentlik muloqot doirasining kengligini o‘zgartirish, suhbatdoshni tushunish va unga tushunarli bo‘la olishni nazarda tutadi. Demak, kommunikativ kompetentlikni takomillashtirish jarayoni shaxs rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq. Bunda individual-shaxsiy xususiyatlar, ijtimoiy-madaniy va tarixiy tajriba kommunikativ kompetentlikni shakllantirishda ko‘maklashadi. Zotan, pedagogik jarayon – o‘quv-tarbiyaviy ishlarda talabalar bilan o‘zaro aloqani nazarda tutadi. Har bir pedagogik vaziyat u yoki bu darajada o‘quv-tarbiyaviy vaziyatga aylanadi. Pedagogik faoliyatning samarasi o‘zaro aloqa natijasida yuzaga keladigan munosabatlarnining mazmuni va xarakteri bilan belgilanadi. Bu esa, pedagogning kommunikativ faoliyatiga, ya’ni muloqot turlari orqli talabalarga ta’lim-tarbiyani tashkil etishga bog‘liq. Boshqacha aytganda, ta’lim va tarbiya-mohiyatiga ko‘ra kommunikativ jarayondir. Kommunikativ kompetentlik deganda muloqotda yuzaga chiqadigan murakkab shaxsiy xususiyatlar, kommunikativ qobiliyat va malakalar, shaxs xarakteri, temperamenti haqidagi

psixologik bilimlar, psixologik holatlar tushunilar ekan, har bir pedagogik hatti-harakat o‘qituvchining muloqot jarayonida yetakchi o‘rnini ko‘rsatadi. Konstruktiv muloqot uchun o‘qituvchiga nafaqat bilim, talabalarning va o‘zining individual xususiyatlarini bilish, balki pedagogik ta’sirning maqbul strategik metodlarini qo‘lay olish ham zarurdir.

Adabiyotlar:

1. Pedagogik atamalar lug‘ati. - T., 2014.
2. Толковый словарь русского языка / Под ред. Д.И. Ушакова. В 4 т. Т. 1. - М., 2009.
3. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish: Monografiya. - T.: Fan, 2004. - 126 b.
4. Маркова А.К. Психология профессионализма. - М., 1996. - 308 с.
5. Ishmuxamedov R. va boshq. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. - T.: Iste‘dod, 2008.
6. Quronov M. Milliy tarbiya. -T.: Ma’naviyat, 2008.
7. Maxmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. - T.: Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxona, 2007.
8. Зябкина И.Г. Развитие коммуникативной компетентности студентов педагогического колледжа. - М., 2014.
9. Nurmanov A. Talabalarning til kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish muammolari // Ma‘rifat. - T., 2014. - 18 may.
10. Muslimov N.A., Mutalipova M.J. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi: Metodik qo‘llanma. - T., 2014.
11. Муталипова М.Ж. К вопросу формирования гармонично развитой личности // Новоинфо. - М., 2017.
12. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi: Monografiya. - T.: Fan va texnologiya, 2013.
13. Головко Е.А. Технология формирования коммуникативной компетентности молодых специалистов на этапе адаптации к педагогической деятельности. - С., 2004.
14. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. - М., 2014.

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA, PEDAGOGIK INNOVATIKA

Xakimova M.F.
Innovatsion yondashuv asosida talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini takomillashtirish.....3
Кадирова Ф.Р.
Педагогические, психологические особенности обучения дошкольников иноязычной речи.....8
Юзликаев Ф.Р., Эшметова Д.З., Кочкарова Д.А.
Педагогика, искусственный интеллект, образование.....14
Djurayev D.U.
Turkiston o‘lkasida mahalliy xotin-qizlar ta’limi tashkil etilishi tarixidan (XIX asr oxiri – XX asr boshlari).....18
Режаметова Н.
Педагогические стратегии изучения детской музыкальной литературы в непрерывном образовании.....23
Muslimov Sh.N.
Developmen og professional competence and modern approaches to preparing furure teachers for pedagogical active.....27
Saydjanov F.M.
Harbiy xizmatchilarda axborot-psixologik hurujlar ta’sirida stressni vujudga keltiruvchi holatlarning empirik o‘rganilishi.....35
Abdurashidov A.A.
Ta’limni tashkil etishda milliy hunarmandchilikning tashkiliy shakllaridan foydalanish.....40
Саиджалалова С.М.
Технология «Языкового портфеля» как средство повышения качества языковой подготовки в условиях неязыкового вуза.....42
Abrorxonova K.A.
Kreativ yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtrish.....44
Shomurodov J.O.
Oliy ta’lim muassasalarida madaniy meros namunalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari.....47
Isaqulov T.M.
Kollaborativ yondashuv asosida o‘smirlar huquqbuzarligini profilaktika qilishninh ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlari.....51
Djumayeva S.A.
Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-axloqiy dunyoqarashni rivojlantirishning pedagogik mexanizmini takomillashtirish.....57
Абдуллаева Н.М.
Развитие инновационной педагогики в системе высшего образования Узбекистана на основе концепции Университета 3.0.....62
Badritdinova M.B.
Bolalarda qo‘rquv keltirib chiqargan tanglik vaziyatini korreksiyalash usullari.....68
Norkulova N.T.
Global raqamli transformatsiya davrida talabalar ma’naviy duyosini shakllantrishda affiliativ motivalarning ahamiyati.....76
Бекманова Ж.А.
Перспективные направления работы логопеда по коррекции речевых нарушений у дошкольников Узбекистана.....79
Sobirov Ya.E.
Yetuklik davrlarda talabalar ijtimoiy intellektni psixologik rivojlanish xususiyatlari.....84
Авлакулов Б.Р.
Роль прикладной психологии в профессиональном становлении студентов.....88
Умарова Н.Ф.
Развитие корпоративной культуры директоров дошкольных образовательных организаций.....93
Bayjanov F.B.
Pedagogik faoliyatda kommunikativ kompetentlikning o‘rni va ahamiayati.....99
Муротмусаев К.
Социально-психологические детерминанты эмоционального интеллекта у лидеров студентов в условиях современного образования.....105
Kadirova N.A.
Talabalik davri shaxs rivojining muhim bosqicni sifatida.....106
Цай Н.В.
Проектирование и программирование методов управления развитием дошкольного и школьного образования.....108
Reyimberdiyev B.A.
Qoraqalpog‘iston va Xorazm mintaqalaridagi oliy ta’lim muassasalarida transvormatsion yetakchilik uslubini tizimli amalga oshirishning kompleks modeli.....117
Choriyeva M.H.
O‘zbekistonda STEAM ta’limning shakllanishi va rivojlanish tendensiyalarining amaliy texnologik tizimi.....120
Isroilova Z.H., Xusanova M.Z., Kilicheva K.
Modern approaches to organizing the educational process.....124
Yusupova M.E.
Interaktiv o‘yinlarning ta’lim jarayoniga integratsiyasi.....126

GUMANITAR VA IJTIMOIY FANLAR TA’LIMI

Djurayev D.U.
Turkiston rus aholi farzadlari ta’limimimg tashkil etilishi (XIX asr ikkinchi yrmi – XX asr boshlari).....132
Norkulova D.
UDL yondashuvi asosida ingliz tilini o‘qitishda o‘quvchilarning leksik kompetensiyasini rivojlantirish va faolligini oshirish.....121
Зиявиддинова З.А.
Сравнительный анализ образовательных чат-ботов и возможности использования интеллектуального обучающего агента в обучении русскому языку как иностранному.....126
Xodjayeva G.S.
Nofilologik yo‘nalish talabalari ingliz tili yozma nutqini rivojlantrishning samarali metodlari: muammolar va echimlar.....155

TABIIY FANLAR TA’LIMI

Yadgarov T.G., Abduganiyeva O.I.
Zamonaviy ilm-fan rivojlanishda to‘plam va ma’lumotlar bazasi asosiy tushunchalarining moslik integratsiyasi.....159
Jabbarov A.E.
«Chizma geometriya va muhandislik grafikasi» fani bo‘yicha ma’ruza mashg‘ulotlarida savol-javob va muloqotning ahamiyati.....142
Turabova L.X.
Fizika ta’limida ma’naviy va intellektual tarbiyalashni rivojlantirishning o‘ziga xos psixologik-pedagogik jihatlari.....144

SAN’AT VA JISMONIY MADANIYAT FANLAR TA’LIMI

Mirzaxalilov A.X.
Jismoniy tarbiya jarayonida kursantlarning jangovar tayyorgarlik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mexanixmlari.....150
Berdiyev B.Ch.
Oliy ta’lim muassasalarida talabalarni milliy kurash bo‘yicha tayyorgarlikni oshirishning innovatsion usullari.....156
Kaypov S.B.
O‘smir eshdagi dzyudochilarni tayyorlashda

olamiz; o‘tmishning mohiyatini chuqurroq tushunsak, kelajakning mazmunini yaqqol tasavvur etamiz; orqaga nazar solsak, olg‘a qadam tashlaymiz...» [1; 24-b.].

Asosiy qism. Ma’lumki, xonliklar davrida boshboshdoqlik, taxt uchun kurash, hududiy janjallarning avj olishi, xalq ta’limining o‘z holiga tashlab qo‘yilishi oqibatida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy inqirozga yuz tutildi. Jug‘rofiy joylashuvi va boyliklari sababli strategik ahamiyatga ega bo‘lgan o‘lkamizga foydali o‘lja sifatida qarala boshlandi. O‘lkaga egalik qilish uchun bo‘lgan kurashlar yurtimizda chor Rossiyasi hukmronligi davrini boshlab berdi. Sanoati tez rivojlanib borayotganligi va O‘rta Osiyo hududlaridan iqtisodiy rivojlanish maqsadida foydalanishdan manfaatdor bo‘lgan Chor Rossiyasi Turkistonni bosib olib, asosan, yengil sanoat mahsulotlarini sotish hamda arzon xomashyoga ega bo‘lish uchun tashqi bozorni kengaytirish rejasini tuzgan edi.

Chor Rossiyasining hukmronligi Turkistonda xalq ta’limi tashkil etilishi va boshqarilishining bir necha o‘n yillarga cho‘zilgan o‘ziga xos yo‘nalishini belgilab berdi. Arxiv hujjatlaridan ma’lum bo‘lishicha chor hukumati Turkiston o‘lkasidagi xalq maorifi ishlariga 1 084 082 so‘m, ya’ni o‘lkaning 44 570 399 so‘mlik umumiy byudjetidan atiga 2,4 foiz miqdorda pul ajratdi. Demak, xulosa qilish mumkinki, o‘lkada maorifni tashkillashtirishga bir yilda bir jonga o‘rta hisobda 22 tiyin ajratildi [2; 18-b.]. Jumladan, 1915-yilda Turkiston o‘lkasi umumiy byudjetining 86,1% o‘lkada polisiyachilar va harbiylar ehtiyojlarini ta’minlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, atigi 2,3% mablag‘ o‘lka xalq ta’limi ehtiyojlari uchun ajratilgan [3; 9-b.]. Bu mablag‘ning qanchasi talon-taroj etilib, arzimagan qismigina mahalliy aholi ta’limini tashkil etish uchun yetib borgan. «Rus-mahalliy» maktablari o‘qituvchilariga maosh tayinlashda milliy ayirmachilikka yo‘l qo‘yilgan bo‘lib, rus tili o‘qituvchisiga mahalliy o‘qituvchiga qaraganda ikki yarim barobar ko‘p haq to‘langan. Masalan, toshkentlik Sharifxo‘ja qozining tashabbusi bilan Shayxontohurda ochilgan rus-mahalliy maktabda rus sinfida saboq bergan V.P.Nalivkinga yiliga 1000 so‘m, o‘zbek sinfida saboq bergan Solixo‘ja Kichkinaxo‘janovga yiliga 400 so‘m maosh berilgan [4; 10-b.]. 1893-yil 1-martda chor Rossiyasi hududidagi yevrey maktablariga nisbatan qo‘llangan qonunni Turkiston musulmon maktablariga nisbatan ham qo‘llandi. Ya’ni, musulmon maktablarida ishlaydigan mahalliy millatga mansub o‘qituvchilar faoliyat olib borish uchun har yili qayta maxsus ruxsatnoma olishlari; ruxsatnoma uchun maktab va qorixona o‘qituvchilari 3 rubl 50 kopeyekdan, madrasa o‘qituvchilari esa, 7 rubldan haq to‘lashlarini shart qilib qo‘yildi [5].

Turkiston xalq ta’limi tashkil etilishidagi tanazzul holatni ma’rifatparvarlarimiz ham chuqur taassuf bilan e’tirof etadilar. Masalan, «Sadoi Turkiston» gazetasining ilk sonlaridan birida Cho‘lponning «Turkistonlik qardoshlarimizga» nomli she’ri bosilgan bo‘lib, unda maorifning mavjud holati, ahvoli shunday tasvirlanadi:

Ilmu maorif ham hunardan qoldi mahrum bizni xalq,
Ma’rifatsizlik balosiga yo‘liqg‘on bizni xalq.
Bir kishi millatparast o‘lsa, deyurlar «dahriy» deb,
Bir kishi millatni so‘ksa, izzat aylar bizni xalq [6; 130-b.].

Bu borada Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Sadriddin Ayniy va boshqa ma’rifatparvarlar ham birdek kuyinib, mahalliy xalq ta’limining ayanchli holatiga o‘z munosabatlarini bildirdilar. Vaqtli matbuot, xususan, «Al-Isloh» jurnalida mahalliy xalq ta’limiga tanqidiy yondashilib, maktablarni muntazam isloh qilishga da’vat etildi. Jurnalda e’lon qilingan ta’lim-tarbiyaga doir maqolalarda maktab va madrasalarning parokandalikka yuz tutgani, zamon talablariga javob bermasligi, o‘quv dasturlarining mavjud emasligi, moliyaviy jihatdan ayanchli holatda ekani, o‘qitish saviyasining pastligi, til va imloning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash lozimligi masalalariga keng e’tibor berildi [7; 30-b.].